

SINONIMLAR IZOHLI LUG‘ATLARIDA SINONIMIK QATORLARNI TUZISH ASOSLARI

Saidova Farida Allayor qizi

*Renessans ta’lim universiteti dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

Abstrakt. *O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunda leksikografik tadqiqotlar va amaliy lug‘atchilikka alohida urg‘u berilmoqda. Xususan, lug‘at tuzish metodikasi bo’yicha amaliy lingvistik tadqiqotlarning bajarilayotganligi, davlat grantlari asosida maqsadli loyihalarning amalga oshirilayotganligi, buning natijasi o‘laroq, lug‘atlarni takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalarning taklif etilayotgani – fikrimiz dalili. So‘zlararo leksik-semantik munosabatlar hamisha tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan hisoblangan. Jumladan, sinonimiya hodisasi o‘zining turli-tumanligi, tarkibiga boshqa hodisalarni qamrab olishi bilan ahamiyatli. Hozirgi kunda yaratilayotgan va dolzarbliyi yuqori bo‘lgan sinonimlar izohli lug‘atlarida sinonimik qatorlarni tuzish mezonlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda bosh so‘zning ahamiyati katta. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, lug‘aviy paradigmalarning bir qator sifatida namoyon bo‘lishi, har bir qatorning o‘z bosh so‘zi bo‘lishi tabiiy. Bitta leksemaning mazmuniy maydon hosil qiluvchi a‘zolari mavjud bo‘lsa, umumiy ma’noga ega bo‘lgan bosh so‘z ham mavjud. Bundan tashqari sinonimik qator a‘zolarining joylashish tartibi bo’yicha ham ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *bosh so‘z, izohli lug‘at, leksema, lug‘at, mezon, sinonimiya, sinonimik qator, sinonimik qator a‘zolari.*

FUNDAMENTALS OF COMPOSING SYNONYMIC LINES IN EXPLANATORY DICTIONARIES OF SYNONYMS

Annotation. *In Uzbek linguistics, lexicographic studies and practical lexicography are currently being emphasized. In particular, the fact that practical linguistic research is being carried out on the methodology of creating a dictionary, targeted projects are being implemented on the basis of state grants, and as a result, practical recommendations for improving dictionaries are being offered - proof of our opinion. Lexical-semantic relations between words have always been considered one of the most urgent issues of linguistics. In particular, the phenomenon of synonymy is important due to its diversity and the fact that it includes other phenomena. One of the most important issues is the development of the criteria for creating synonymy lines in the explanatory dictionaries of synonyms that are being created and are of high relevance today. The main word is of great importance in determining the boundary of the synonymous line. At this point, it should be noted that it is natural for lexical paradigms to appear as a series, and each series has its own head word. If there are members*

of one lexeme that form a meaningful field, there is also a head word with a common meaning. In addition, some comments on the order of placement of the members of the synonymous series have been made.

Key words: *head word, annotated dictionary, lexeme, dictionary, criterion, synonymy, synonym series, members of synonymous series.*

Maqolada qoʻllangan shartli qisqartmalar:

1. OʻTSIL – Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati;
2. SQ – Sinonimik qator;
3. SQA – Sinonimik qator aʼzolari.

Tildagi oʻzgarish (soʻzning eskirishi / yangi soʻz paydo boʻlishi) davr talabi va boshqa omillar bilan bogʻliq. Tilshunoslik taraqqiyoti ham shunday. Dunyo tilshunosligida boʻlayotgan oʻzgarishning koʻpida inson va til munosabati aks etadi. Tilning insonga, insonning tilga taʼsiri tilshunoslikdagi chayir qoidalarni oʻzgartirib yubordi. U inson bilan chuqurroq bogʻlandi (albatta, biz nazarda tutgan inson tilshunos emas). Hozirgi kunda aksar tadqiqot amaliy, yaʼni tilning inson uchun ahamiyati va samaradorligi fonida olib borilmoqda. Xususan, oʻzbek tilshunosligida ham “nazariyadan amaliyotga”, “lisoniy imkoniyat – shaxs – nutq” tamoyili asosida ish koʻradigan amaliy filologiya oyoqqa turmoqda [Khamroyeva , Mengliyev 2019, 105-107; Mengliyev , Karimov 2020; Musulmonova 2020; Turayeva 2020; Gulyamova, Mengliyev 2019].

Tilning rivojlanishida, ayniqsa, leksik sathning ahamiyati juda katta. Soʻz har doim tilshunoslik uchun muhim obyekt hisoblangan. Bu oʻzgarmas hodisa. Chunki inson muloqotga kirishishi uchun, albatta, gaplardan foydalanadi. Gaplar esa soʻzlashuv nutqida juda qisqa, hattoki bitta soʻzdan, bitta ishoradan iborat boʻlishi mumkin. Soʻzning maʼnosi, uni qanday qoʻllash va shu soʻzga tegishli maʼlumotlar izohli lugʻatda namoyon boʻladi. Izohli lugʻatning til rivojidadagi oʻrni undagi soʻz maʼnolarining toʻgʻri ochib berilgani bilan beqiyos.

Shaklan har xil, mazmunan bir xil soʻzlar qatorining muayyan oʻxshashlik asosida oʻzaro bogʻlanishi, bu birliklar orasidagi farqlar, ularning tabiati va yuzaga chiqish sabablari maxsus ilmiy ishlarda, oʻnlab qoʻllanma va darsliklarda oʻz yechimini topgan [Neʼmatov, Rasulov 1995, 105]. Sinonim leksema semalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil boʻlib, ifoda semasi farqlanadi. Maʼnodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi isteʼmoldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda maʼnodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, ibora, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama soʻz, soʻz birikmasi, nutqiy koʻchma soʻz bilan toʻlib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning goʻzalligi va boyligini taʼminlovchi vosita sanaladi [Neʼmatov, Rasulov 1995, 113].

Sinonimlar izohli lugʻatlarining asosiy korpus qismini sinonimik qatorlar tashkil qiladi. Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda bosh soʻzning ahamiyati katta. Bitta

leksemaning mazmuniy maydon hosil qiluvchi a'zolari mavjud bo'lsa, umumiy ma'noga ega bo'lgan so'z bosh so'z ham mavjud. Ilmiy adabiyotlarda bosh so'z terminiga sinonim sifatida uslubiy betaraf, neytral, mo'tadil, dominant so'z kabi terminlar qo'llangan. Ushbu bo'limda sinonimik qatorning umumiy ma'noga ega, uslubiy betaraf, har jihatdan neytral bo'lgan leksemani bosh so'z termini qabul qilindi va qolgan o'rinlarda xuddi shunday qo'llangan.

Bosh so'z sinonimik qatordagi barcha so'zlar bildirgan umumiy ma'noni ifodalashi, barcha uslublar uchun, barcha zamon uchun bir xilda foydalana oladigan so'z bo'lishi lozim. Masalan, dushman, yov, g'anim, ag'yor, yog'i sinonimik qatorida dushman so'zi bosh so'z sifatida tanlangan. Chunki u o'z qatoridagi boshqa so'zlar orasida eng keng qo'llaniladigan, barcha uslublar uchun umumiy xoslangan so'z.

Sinonimik qator uchun bosh so'z muhim hisoblanar ekan, avvalo, bosh so'zning chegarasini belgilab olish zarur. Bosh so'zning chegarasi bir qarashda aniqqa o'xshaydi: umumiy ma'noga ega, barcha uslublar uchun xoslangan, keng qo'llanadigan so'zlar bosh so'z sifatida tanlanadi. Vaholanki, bitta qatorda bir nechta shunday so'zni uchratish mumkin.

Jilmaymoq, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq sinonimik qatorida ikkita uslubiy betaraf so'z mavjud: jilmaymoq va iljaymoq. Ushbu so'zlarning O'TSILda keltirilgan izohida quyidagicha fikr yuritilgan: Ovoz chiqarmay ko'z, lab harakati bilan kulgi ifoda qilmoq, miyig'ida kulmoq. Jilmaymoq va iljaymoq so'zlari stilistik jihatdan neytral hisoblanadi. Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq so'zlari salbiy ottenkaga ega. Bu salbiy ottenka irjaymoq so'ziga nisbatan tirjaymoq so'zida, tirjaymoq so'ziga nisbatan ishshaymoq so'zida, ishshaymoq so'ziga nisbatan irshaymoq so'zida kuchliroq.

Ushbu sinonimik qatorda ikkita uslubiy neytral so'z bo'lishiga sabab, shaxsiy munosabat bildiruvchi sememaning ikkalasi ham (ijobiy va salbiylik) mavjudligidir. Jilmaymoq, kulimsiramoq ijobiy bahoga ega sinonimlar hisoblansa, sinonimik qatorning boshqa a'zolari salbiy bahoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun bu sinonimik qatorda ikkita bosh so'z hosil bo'lgan. Aslida bu qatorda ijobiylik va salbiylik bo'yog'i aralashib ketmasligi kerak. Chunki bu sinonimik qator, graduonimik qator emas. Agar ushbu qator graduonimik qatorga yuzasidan tahlil qilinsa, belgining salbiy bo'yoqdorlik oshib borishiga ko'ra xususiyati orqali darajalanish qatorini tiklash mumkin.

Sinonimlar ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar, qoidasi asosida sinonimlar guruhini shakllantirish, shunga asosan, bosh so'z tanlab olinishi zarur.

Sinonimik qatorda bosh so'zni belgilashda mavjud bilimlar asosida mo'tadillik, faollik, birikuvchanlik mezonlariga tayanish mumkin.

1. Mo'tadillik. Bu mezon leksemaning atash (denotativ) semasi bilan bog'liq. U sinonimik qatorni to'g'ri shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Denotativ sema leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik

xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bog'lab turadi. Ayni shu sema bosh so'zni tanlashda juda muhim. Yaxshi, tuzuk, durust, binoyi sinonimik qatorida bosh sifatida yaxshi so'zi qabul qilinadi. Mo'tadillik omili asosida tahlil qilinsa, yaxshi so'zi tuzuk, durust, binoyi so'zlariga nisbatan mo'tadil va umumiy. Ularni birlashtirib turuvchi ma'no – "belgi" tushunchasi. Sinonimik qatordagi so'zlarning barchasida shu ma'no mavjud. Ammo boshqa a'zolariga nisbatan yaxshi so'zida neytrallik mavjud, tuzuk, durust, binoyi so'zlarida esa belgining kuchsizroq ifodasi mavjud. Shunga asosan, yaxshi so'zi bosh so'z hisoblanadi.

2. Faollik. Leksemaning ifoda (konnotativ) semasi orqali aniqlash mumkin bo'lgan mezon. Leksemaning ifoda semasi semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi turi. Bu sema sinonimik qatorda so'zlarning to'g'ri tartibda joylashishi muhim; shunga asosan bosh so'z aniqlanadi. Yaxshi, tuzuk, durust, binoyi sinonimik qatorining bosh so'zi yaxshi leksemalari faollik omili asosida tahlil qilinsa, yaxshi so'zida (boshqa sinonimik qator a'zolariga qaraganda) uslubiy "shaxsiy baho" semasi mavjud emas. U barcha uslublarda keng qo'llanadi, qo'llanish doirasi va davri chegaralanmaganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shu asosda yaxshi so'zining takrorlanuvchanlik hamda shu qator a'zolariga nisbatan qo'llanilish darajasi ortiqligi bosh so'z ekanligining isbotidir.

3. Birikuvchanlik. Leksemaning funksional semasi ushbu mezon uchun asos bo'la oladi. Leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Bosh so'z o'z sinonimik qator a'zolaridan farqli ravishda istalgan uslubda o'zi birikishi lozim bo'lgan so'z bilan hech qanday g'alizliksiz birika olish xususiyatiga ega bo'ladi. Yaxshi bosh so'zining birikuvchanlik xususiyati tuzuk, durust, binoyi so'zlariga nisbatan keng: yaxshi baho, yaxshi sifat, yaxshi xulq, yaxshi yangilik va hokazo. Aniqlovchi aniqlanmish asosida hosil qilingan ushbu birikmalarni qatorning boshqa a'zolarida qo'llab ko'rilsa, ma'no o'zgaradi: tuzuk baho, tuzuk sifat, tuzuk xulq, tuzuk yangilik; durust baho, durust sifat, durust xulq, durust yangilik; binoyi baho, binoyi sifat, binoyi xulq, binoyi yangilik kabi. Sinonimik qator a'zolarining barchasi odam leksemasi bilangina valentlikka kirisha oladi. Yaxshi odam, tuzuk odam, durust odam, binoyi odam. Ammo odam so'zining sinonimi hisoblangan inson so'zi bilan faqat yaxshi so'zi valentlikka kirisha oladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

birinchidan, bosh so'z sinonimik qatorning boshqa a'zolariga nisbatan ma'no jihatdan "kambag'al" hisoblanadi. Masalan, yuz so'zi oraz, chehra, bashara so'zlarida shaxsiy munosabat ham mavjud bo'lib, ijobiylik/ salbiylik baholari qo'shimcha ma'no sifatida vujudga keladi;

ikkinchidan, bosh so'zning qo'llanish doirasi boshqa sinonimik qator a'zolaridan kengroq bo'ladi;

uchinchidan, bosh so'z sinonimik qator a'zolari uchun umumiy bir ma'noga ega bo'lganligi sababli boshqa ma'nodoshlari bilan almashib kela oladi;

to'rtinchidan, boshqa lug'aviy paradigmalarda uchun muayyan sinonimik qatordan "vakil" sifatida bosh so'z tanlanadi.

Har qanday lug'at turi uchun so'zlik muammosi adabiy til va uning uslublarini chuqur tadqiq qilgan holda hal qilinishi kerak. Bu o'rinda so'z yasalishi, grammatika masalalari, shuningdek, yasama, qo'shma, juft va qisqartma so'zlarning so'zlikdan joy olishi masalalari ham ilmiy asoslanishi kerak. Shu sababdan sinonimlar lug'ati uchun sinonimik qatorni shakllantirish metodi ishlab chiqilishi lozim. Buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur quyidagi fikri orqali har bir butunlik – sistemaning bo'linuvchanlik xususiyatiga ega ekanini ta'kidlaydi: "Til yaxlit bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlarning sistemasidir. Uni tashkil etuvchi har bir elementning ma'nosi bir paytning o'zida shu sistemani tashkil qilayotgan boshqa elementlarning mavjudligiga asoslanadi".

Sinonimik qatorni shakllantirishda bir necha tasniflarni ajratish mumkin:

- 1) sinonimik qator a'zolarining miqdoriga ko'ra;
- 2) sinonimik qator a'zolarining tuzilishiga ko'ra;
- 3) so'z turkumlari bo'yicha sinonimik qatorlar;
- 4) sinonimik qator a'zolarining bo'yoqdorligiga ko'ra;
- 5) sinonimik qator a'zolarining qo'llanilish doirasiga ko'ra.

Sinonimik qator a'zolarining miqdori xususida aniq bir to'xtamga kelinmagan. Sinonimik qator (SQ) kamida ikkita leksemdan iborat bo'lishi lozim, biroq a'zolari sonining nechtagacha borishi mumkinligi haqida xulosalar mavjud emas. Bunday xulosaning bo'lishi mumkin emasligini esa, tilning o'zgaruvchanlik xususiyati orqali anglash mumkin. Til doim rivojlanishda bo'lganidek, sinonimik qator a'zolari (SQA) ham o'zgarib, yangilanib boradi: sinonimik qator a'zolarining miqdori oshishi yoki kamayishi mumkin.

Yuqoridagi boblarda ko'rib chiqilgan agressiya, tajovuzkorlik, tajovuz, bosqinchilik sinonimik qatoridagi agressiya so'zi hozirgi kunda juda kam qo'llanadi, muayyan soha doirasidagina mavjud ushbu so'z termin sifatidagina saqlanib qolishi mumkin. Ushbu sinonimik qatorning bosh so'zi mavqeidan ketish ehtimoli ham kuchli. Bundan tashqari, befahm, fahmsiz, befarosat, farosatsiz, betamiz, haftafahm sinonimik qatori O'TSILda quyidagicha tahlil qilinadi:

Narsa-hodisaning mohiyatiga tushunish qobiliyati yo'q, fahm-farosati yo'q; fahm-farosat bilan ish qilmaydigan. Haftafahm oddiy so'zlashuv uslubiga xos. Hozirgi davrda bu sinonimik qatoriga kaltafahm so'zini qo'shish mumkin. Chunki bu leksema ham badiiy va oddiy so'zlashuv uslubida faol qo'llanadi. Shunday ekan, sinonimik qatorning chegarasini belgilash mumkin emas va buning imkoni yo'q.

Misollarni tanlashda, so'zning qo'llanilish doirasi va davri muhim hisoblanadi. Chunki so'z ma'lum bir doirada va davrda faol leksik qatlamdan o'rin olgan bo'ladi. Shunga asoslanib, qadimdan hozirgi kungacha o'z faolligi va ma'nosini yo'qotmagan sinonimlar uchun misollarning istalgan davrda yozilgan (qadimgi turk davridan

tashqari) adabiyotlardan olish mumkin. Nutqiy sinonimlarga misol tanlanayotganda neologizm, zamonaviy soʻzlar; noadabiy unsurlarning xususiyatlariga eʼtibor qaratish, shu xususiyatlar aks etgan ilustrasiyalar berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akobirov, S. F. 1960. “Oʻzbek tili lugʻatining baʼzi bir masalalari.” Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari.
2. Akobirov, S. F. 1965. “Oʻzbek tilining izohli lugʻatida qoʻshma soʻzlar.” Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari.
3. Akobirov, S.F. 1966.“Oʻzbek tilining izohli lugʻatida frazeologiya.” Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari.
4. Akobirov, S.F. 1971. “O granitsax i istochnikax tolkovogo slovarya uzbekskogo yazыka.” Tyurkskogo leksikologiya i leksikografiya.
5. Gulyamova, Shahnoza, Bakhtiyor Mengliyev. 2019. “Lexical-semantic classification of euphemisms of the feminine gender in the Uzbek language.” Academia, Vol 1. No 1.
6. Hojiyev, A.P. 1981. “Sinonimiya.” Oʻzbek tili leksikologiyasi. A.Hojiev, A.Axmedov. muharrirligida. 241 bet. Toshkent: Fan.
7. Khamroyeva, Sh.M., B.R. Mengliyev. 2019. “The authorship lexicography and authorship corpus.” Materialy mejdunarodnoy nauchnoy konferensii mejnauchnaya integratsiya: lingvodidakticheskiy, lingvokulturologicheskiy i psixolingvisticheskiy aspekty. 19-20 dekabr
8. Mengliyev, B., R. Karimov. 2020. “Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus.” JOURNAL OF CRITICAL . Vol. 7, issue 17.
9. Musulmonova, K.Kh. 2020. “The concept of the linguistic exam and its meaning.” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 Issue 11, November.
10. Neʼmatov, H., R. Rasulov. 1995. “Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.” Toshkent: Oʻqituvchi.
11. Sabirova, E. 2021.““Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da huquqiy terminlarning berilishi.”: Filol.fan.b. fal.dok. ...diss. Toshkent.
12. Sodiqov, A., A. Abduazizov, M. Irisqulov.1981. “Tilshunoslikka kirish.” Toshkent: Oʻqituvchi.
13. “Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati. I, II jild /N.Mahmudov tahriri ostida. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.